

[5] V.Yu. Kulkova Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida korporativ ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirish // Milliy manfaatlar: ustuvor yo'nalishlar va xavfsizlik. No 36. 2012. - B.72-80.

[6] <https://www.blackrock.com/corporate/investor-relations/larry-fink-ceo-letter>

O'ZBEKISTON KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIGA ESG-TAMOYILLARINI JORIY ETISH MASALALARI

Tashmatov Rustam Xusanovich

*O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Xususiyashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi, bo'lim mudiri
rustam9837@mail.ru*

Annotatsiya

Mazkur tezisda ESG tamoyillarining kelib chiqishi, xalqaro ahamiyati, unga rioya qilgan korxonalar ro'yxati hamda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarga, shu jumladan davlat ulushi bo'lgan korxonalarga ESG-tizimini joriy etish masalalari yoritilgan

Kalit so'zlar: ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG), ESG tamoyillari, ESG-reyting, investorlar, transformasiya qilish, davlat ishtirokidagi korxonalar, "yashil" iqtisodiyot

So'nggi yillarda mas'uliyat va ekologiya borasidagi tendentsiyalar investisiya sektoriga ham tarqaldi. Natijada ESG tushunchasi paydo bo'ldi.

Zamonaviy shaklda ESG tamoyillari ilk bor 2004 yilda BMTning sobiq Bosh kotibi Kofi Annan tomonidan kiritilgan. U jahondagi yirik kompaniyalar boshqaruvchilariga ushbu tamoyillarni o'z strategiyalariga, birinchi navbatda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishni taklif qildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, aksariyat rivojlangan davlatlarda yirik kompaniyalar bu tamoyilga allaqachon o'tib bo'lgan va ularning soni ortib ormoqda. Masalan, AQShda ESG-reytingga ega bo'lgan kompaniyalar soni 2000 yilda 20tani tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilga kelib ularning soni deyarli 800ga etdi. O'rtacha ESG reytingi 20 yil ichida ikki baravar ko'paydi, bu ma'lumotlar hajmi, sifati oshishi va ochiqligi bilan bog'liq .

Xorijiy tajribasi investorlar past ESG reytingiga ega kompaniyalarni kamroq qo'llab-quvvatlashini ko'rsatdi. 2020 yilda EY institusional investorlar — sug'urta va investisiya kompaniyalari, pensiya va xayriya jamg'armalari o'rtasida so'rov o'tkazgan. Natijada, respondentlarning 98 foizi kompaniyaning ESG reytingini qat'iy nazorat qilishlarini ta'kidladilar. Bunga asosiy sabablardan quyidagilarni keltirish mumkin [11]:

- mas'uliyatli investisiyalar va qimmatli qog'ozlarning rentabelligi o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik tasdiqlandi;

- ESG reytingiga e'tibor qaratib, investorlar faoliyati ekologik xavf va katta pul yo'qotishlari bilan bog'liq bo'lgan kompaniyalarni tanlamasligi mumkin. Masalan,

2010 yilda Transocean platformasining portlashi natijasida kelib chiqqan neftning to‘kilishi;

- banklar kredit berishda ESG reytingini hisobga oladi. Masalan, Sberbank (Rossiya) 2020 yil noyabr oyida AFK "Sistema" investisiya kompaniyasiga kredit berdi: ushbu kreditda foiz stavkasi ekologik siyosat va mas’uliyatlari investisiyalar talablariga javob berish bilan bog‘liq .

Dunyoda ESG tamoyillariga amal qiladigan muvaffaqiyatli korporasiyalarning ko‘plab misollari mavjud. Corporate Knights kompaniyaning ma’lumotlariga ko‘ra, 2021 yilda kuchli beshlikka quyidagi kompaniyalar kirgan:

Schneider Electric – muhandislik kompaniyasi (Frantsiya);

Ørsted A/S. – transmilliy energetik kompaniyasi (Daniya).

Banco do Brasil SA – Braziliya milliy banki (Braziliya).

Neste Oyj – neft va gaz kompaniyasi Neste oyj (Finlyandiya).

Stantec Inc dizayn – arxitektura va konsalting sohasidagi xalqaro professional xizmatlar kompaniyasi [12].

Corporate Knights dunyodagi eng barqaror 100 global korporasiyalarning yillik reytingini e’lon qiladi. Reyting ommaviy oshkor qilingan ma’lumotlarga asoslanadi.

Ko‘pgina Rossya kompaniyalari ham ESG tamoyillariga amal qilishadi. Masalan, “Polimetall” tog‘-kon kompaniyasi ekologik va ijtimoiy loyihalarni faol rivojlantirmoqda: korxonalar yaqinidagi flora va faunaning holatini kuzatib boradi va ularni saqlash dasturini ishlab chiqadi. Natijada korxona ketma-ket to‘rtinchchi marta RAEK-Europe mustaqil kredit reyting agentligi renkingining yetakchisiga aylandi. Renking – MDH davlatlari hududidagi kompaniylanarning ESG ma’lumotlarini to‘plash, tizimlashtirish va tahlil qilish bo‘yicha RAEK-Europe loyihasining bir qismidir [13].

O‘zbekistonda esa ESG-reytinglash hali rivojlanmagan. Buni mamlakatda reyting agentliklari kamligidan dalolat beradi. Mavjud milliy reyting agentliklari esa ESG-reytingini e’lon qilmaydi. Masalan, Ahbor-Reyting kredit reytinglarini taqdim etadi, moliyaviy, boshqaruv va strategik konsalting bilan shug‘ullanadi, makroiqtisodiyot va moliya bozori segmentlari bo‘yicha tadqiqotlarni nashr etadi, axborot-tahliliy ishlarni amalga oshiradi. STANDARD AND SENSITIVE RATINGS har chorakda bank-moliya sektori muassasalari, sug‘urta bozori korxonalari, uyushmalar a’zolari bo‘yicha reyting monitoringini olib boradi. SAIPRO axborot-reyting agentligi marketing tadqiqotlarini olib boradi va moliyaviy tashkilotlar va korxonalar ishonchliligining mustaqil reytingini shakllantiradi, moliya sohasida konsalting xizmatlarini ko‘rsatadi, ish qidirish, ishga qabul qilish va uni boshqarishni samarali tashkil etish bo‘yicha maslahatlar beradi [10].

Buning asosiy sababi bu yo‘nalish O‘zbekiston uchun yangi hisoblanadi va respublikamiz hukumati faqatgina ohirgi yillarda bunga alohida urg‘u berib, bu sohada o‘lkan va jiddiy qadam qo‘yilganligi quvonarli holdir.

Dastavval respublikamiz rivojlanishini yaqin istiqbollarini belgilab beruvchi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 24 maqsadida iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash hamda “yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish vazifasi qo‘yilgan [1]. Buning doirasida yangi ishga tushirilayotgan ishlab

chiqarish korxona va tashkilotlarda ifloslantiruvchi manbalarida samaradorligi 99,5 foizdan kam bo‘lmaidan chang va gaz tozalash uskunalarini o‘rnatishni tashkil qilish; xavflilik darajasi yuqori va o‘rta bo‘lgan metallurgiya, yog‘-moy, energetika va qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi 24 ta yirik korxonalarda samaradorligi 95 foizdan kam bo‘lmaidan 144 ta chang-gaz tozalash uskunalarini o‘rnatish; atmosfera havosiga ta’sir xavfi yuqori bo‘lgan 44 ta sanoat korxonalarining atmosferani ifloslantiruvchi 50 ta ustuvor manbalarida avtomatik stantsiyalar, ularga tutash hududlarda 12 ta statsionar kuzatuv punktlarini o‘rnatish va yagona geoaxborot ma’lumotlar bazasiga integrasiya qilish; tabiiy suv havzalariga yoki joy relyefiga oqovalar tashlovchi yirik sanoat korxonalarida 76 ta lokal oqova tozalash inshootlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish ishlarini amalga oshirish nazarda tutilgan.

Shuni inobatga olib, hukumat tomonidan davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini transformatsiya qilish hamda xususiyashtirishni jadallashtirish, iqtisodiyotda samarasiz ishlayotgan korxonalar ulushini kamaytirish hisobiga sifat jihatidan yangi, xususan, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillariga asoslangan investisiyalar va ishlab chiqarish unumdorligi yuqori bo‘lgan texnologiyalarning ko‘payishini rag‘batlantirish bo‘yicha ustuvor vazifasi qo‘yilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.04.2022 yildagi PF-101-sون Farmoni [2] bilan tasdiqlangan tadbirkorlik muhitini yaxshilash va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda xususiy sektorning rolini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar rejasining “IV. Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarida korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini keng joriy etish, xaridlar tizimi shaffofligini ta’minlash orqali korrupsiyani oldini olish” bo‘limida transformatsiya qilinadigan davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari sifatida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni, shu jumladan kelajakda xalqaro savdo va moliya bozorlariga chiqishda ko‘mak beruvchi ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) hisobdorlik tizimlarini joriy etish bo‘yicha ilg‘or xorij tajribasini o‘zlashtirish va bu borada hukumatga tegishli takliflar kiritish vazifasi qo‘yilgan.

Iqtisodiyotni, shu jumladan sanoatning yetakchi tarmoqlarini yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish doirasida 2023-2026 yillarda ustav kapitalida davlat ulushi mavjud transformatsiya qilinadigan aktsiyadorlik jamiyatları faoliyatiga ESG (Environment, Social, Governance)ni joriy etish, bunda atrof-muhit, ijtimoiy omillar va korporativ boshqaruv omillari (ESG omillari), shuningdek, barqaror rivojlanish masalalari bilan bog‘liq omillarni hisobga olish masalalari jamiyatlar boshqaruv organlarida ko‘rib chiqilishini tashkillashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish hamda xalqaro moliya institutlarini jalg qilgan holda quyidagi korxonalarda: 2023 yilda – “O‘zmetkombinat” AJ; 2024 yilda – “Navoiy KMK” AJ, “Olmaliq KMK” AJ; 2025-2026 yillarda – boshqa davlat ishtirokidagi boshqa yirik korxonalarda ESGni joriy etish vazifasi topshirilgan [3].

Joriy 2023 yilda, shuningdek, yuqorida ta’kidlagan korxonalardan tashqari “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi tizimi korxonalarida [4] hamda “Navoiyuran” DK da [5], 2025 yilga qadar gidroenergetika sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalarda [6] ESG tizimini joriy etish vazifalari qo‘yilgan va bu yo‘nalish korxonalarining rivojlantirish va transformatsiya qilish bo‘yicha yo‘l xaritalarda alohida joy olgan.

Ushbu ijobiy holatini inobatga olib, Global tashabbuskorlik hisoboti (Global Reporting Initiative, GRI) hamda atrof muhit, ijtimoiy va boshqaruv (Environmental Social Governance, ESG) tartibi asosida atrof muhitni muhofaza qilish, yerlar ifloslanishi va degradatsiyasini oldini olish, suv resurslarini tejash, atmosfera havosiga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini kamaytirish bo'yicha uzoq muddatli ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish strategiyasini ishlab chiqish va kon-metallurgiya sanoati sohasida ekologik talablarni va atrof muhit muhofazasi me'yorlarini xalqaro standartlar asosida belgilash dasturi tasdiqlandi [9].

Bu borada ishlarni jadallashtirish maqsadida 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil o'sishni ta'minlash dasturi tasdiqlanib [7], unda ESG standartlariga mos keladigan investisiya loyihalarini amalga oshirish tizimini ta'minlash, shuningdek, "yashil" investisiyalar konsepsiyasini amaldagi investitsiya siyosati va loyihalariga integratsiya qilish doirasida 2023 yil oktyabrda barcha manbalar (davlat, xususiy) hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalari uchun "yashil" mezonlar, shu jumladan suveren "ESG" indikatorlarini ishlab chiqish va joriy etish, 2023 yil sentyabrda ustav kapitalida davlat ulushi ustun mavqega ega korxonalarining tegishli boshqaruv organlarida SDG, CSR, ESG tamoyillarini joriy etish nazarda tutilgan.

Shu bilan birga yaqinda davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha qabul qilgan hujjati da ham iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yirik korxonalarni isloh qilish, shu jumladan ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish hamda xususiy sektorni jalg qilish alohida vazifa sifatida qo'yilgan [8].

Xulosa qilib aytganda, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotga, shu jumladan davlat ahamiyatiga ega bo'lgan korxonalarga investitsiyalarni jalg qilishning asosiy mezoni korxonaning ESG-tamoyillariga rioya qilinganligi hisoblanadi. Ushbu amaliyotni respublikamizda ham joriy etish bo'yicha jadal ishlar olib borilmoqda va yaqin istiqbol yillarda aksariyat korxonalarda, shu jumladan davlat ulushi bo'lgan korxonalarda ESG-tamoyillari joriy etish rejalashtirilgan. Bu esa milliy ESG-reyting tizimi shakllanishiga zamin yaratib beradi hamda xalqaro integratsiyasi orqali milliy korxonalarining global ranking tizimida aks ettirilishi ta'minlanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida" 08.04.2022 yildagi PF-101-son Farmoni

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 01.03.2023 yildagi PQ-83-son Qarori

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovasion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 06.07.2022 yildagi PQ-307-son Qarori

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2030 yillarda “Navoiyuran” davlat korxonasida uranni qazib olish, qayta ishlash hajmlarini oshirish hamda uni transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 14.07.2022 yildagi PQ-319-son Qarori

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Gidroenergetika sohasini yanada isloq qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 30.03.2023 yildagi PQ-104-son Qarori

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 02.12.2022 yildagi PQ-436-son Qarori

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat ishtirokidagi korxonalarini isloq qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 01.03.2023 yildagi PQ-83-son Qarori

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kon-metallurgiya sanoati sohasida ekologik talablarni va atrof muhit muhofazasi me’yorlarini xalqaro standartlar asosida belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 25.08.2022 yildagi 474-son qarori

10. Узбекистан: ESG-досье —

https://sber.pro/digital/uploads/2022/09/ESG_Uzbekistan_A3_2_718a6609cc.pdf

11. <https://dzen.ru/a/Y4oFzu4byCm1QBrs>

12. <https://trends.rbc.ru/trends/green/614b224f9a7947699655a435>

13. <https://mmr.media/tpost/d48rpsut31-esg-printsipi-chto-eto-takoe-i-zachem>

THE ROLE OF CORPORATE SOCIAL RESPONSIBILITY IN UZBEKISTAN

Khamraeva Farangiz Shukhratovna
Student of Tashkent state university of economics
farangiz.sh.kh@gmail.com

Abstract

Corporate Social Responsibility (CSR) is a concept that has gained increasing attention in recent years, as companies around the world have recognized the importance of sustainable and responsible business practices. Uzbekistan is no exception, as companies in the country are beginning to recognize the importance of CSR and its potential to benefit both their business and the wider community. This essay will explore the role of CSR in Uzbekistan, including its benefits and challenges.

Key words. Corporate Social Responsibility, Uzbekistan, company, CSR,

Corporate Social Responsibility (CSR) refers to the voluntary actions taken by a company to operate in an economically, socially, and environmentally sustainable way. This includes ethical business practices, community engagement, environmental stewardship, and philanthropy. CSR is a way for businesses to positively impact society